



O'ZBEKISTON TURIZMIDAGI TRANSPORT MUAMMOLARI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Turizm yo'naliши талабалари,

Jamshid Sultonov Xusan O'g'li

Muhammadjon Saidmuradov Yashin O'g'li

Mail: jamshidsultonov308@gmail.com **Mail:**

saidmuradovmuhammadjon@gmail.com

Tel: +998975779787 **Tel:** +998997798909

ORCID: 0009-0007-8441-1374 **ORCID:** 0009-0003-0887-5194

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishda transport tizimining o'rni va uning mavjud muammolari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Mamlakatda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida transport-logistika tizimining hozirgi holati o'rganilgan. Transport xizmatlarining sifati, hududlararo muvozanatsizlik, raqamli texnologiyalar integratsiyasining pastligi kabi omillar turizm rivojlanishiga qanday ta'sir qilayotgani aniqlangan. Tadqiqotda kontent-tahlil, taqqoslash va muhokama-tahlil metodlari asosida transport infratuzilmasidagi tizimli muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, turizm, transport tizimi, infratuzilma, logistika, raqamli texnologiyalar, davlat siyosati, ichki turizm, transport xizmatlari, rivojlanish strategiyasi.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role of the transport system in the development of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan and the existing challenges in this area. The current state of the transport and logistics system has been examined based on regulatory and legal documents adopted within



the framework of state policy aimed at improving tourism infrastructure in the country. Factors such as the quality of transport services, regional imbalances, and the low level of integration of digital technologies have been identified as influencing the development of tourism. Using content analysis, comparative analysis, and discussion-analysis methods, the study analyzes systemic problems in the transport infrastructure and proposes scientifically grounded recommendations for their resolution.

Keywords: *Uzbekistan, tourism, transport system, infrastructure, logistics, digital technologies, state policy, domestic tourism, transport services, development strategy.*

Аннотация: *В данной статье представлен научный анализ роли транспортной системы в развитии туристической отрасли Республики Узбекистан, а также существующих проблем в этой сфере. Исследовано текущее состояние транспортно-логистической системы на основе нормативно-правовых актов, принятых в рамках государственной политики по совершенствованию туристической инфраструктуры в стране. Выявлены факторы, влияющие на развитие туризма, такие как качество транспортных услуг, региональный дисбаланс и низкий уровень интеграции цифровых технологий. На основе методов контент-анализа, сравнительного анализа и анализа-дискуссии проанализированы системные проблемы транспортной инфраструктуры и предложены научно обоснованные рекомендации по их устранению.*

Ключевые слова: *Узбекистан, туризм, транспортная система, инфраструктура, логистика, цифровые технологии, государственная политика, внутренний туризм, транспортные услуги, стратегия развития.*



Krish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada muhim tashabbuslarning amalga oshirilgani, xususan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, 2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ PF-5611-sonli[6] Farmonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, qulay investitsiya muhitini shakllantirish va transport-kommunikatsiya tizimini takomillashtirish borasida aniq vazifalar belgilangan. Bu hujjatda mamlakatimizda ichki va tashqi turizm oqimini oshirishda logistika va transport xizmatlarining sifatini yaxshilash muhim omil sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonda ham turizm sohasida transport tizimi samaradorligini oshirish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu strategik hujjatda ichki va xalqaro yo‘lovchi tashish xizmatlarini yanada qulaylashtirish, aeroport va vokzallar infratuzilmasini zamonaviylashtirish, turistik marshrutlarni rivojlantirish kabi vazifalar ilgari surilgan. Shu bilan birga, Prezident tomonidan 2023-yil 18-aprelda imzolangan “Turizm xizmatlari sifatini oshirish va milliy turistik mahsulotni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli Qarorda² transport-logistika infratuzilmasidagi muammolar, jumladan, yetarli darajadagi qulay va xavfsiz transport vositalarining mavjud emasligi, yo‘llarning holati, transport harakati jadvalining noqulayligi va servis xizmatlarining yetarli emasligi singari masalalar turizmning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgani ta’kidlangan.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>

² <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>



Mazkur hujjatlar O‘zbekistonda turizmning jadal rivojlanishi uchun zamonaviy transport tizimini yaratish muhimligini ko‘rsatadi. Biroq, amaliyatda ushbu sohada hanuz yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. Respublikamizning ba’zi turistik hududlariga transport vositalarining yetib borishi qiyinligi, yo‘llarning sifatsizligi, jamoat transporti tizimining rivojlanmaganligi, aerotashuvlar tariflarining yuqoriligi kabi omillar sayyoohlarning mamlakatimizga bo‘lgan qiziqishini cheklashi mumkin. Shuningdek, temir yo‘l va avtobus qatnovlarining jadvali ko‘p hollarda turistlar ehtiyojidan kelib chiqmaydi, bu esa logistika muammollarini yanada chuqurlashtiradi.

Yuqoridagi fikrlar va Prezident tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston turizmida transport tizimi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, ularni ilmiy tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, turizm sohasining barqaror rivojlanishi zamonaviy, qulay va raqobatbardosh transport tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar taxlili va Metodologiy

So‘nggi yillarda O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar ilmiy doiralarda ham keng muhokama qilinib, turli tadqiqotlarda transport tizimi bilan bog‘liq muammolar alohida o‘rganilmoqda. Tadqiqotchi A.X. Xolmirzayev [1] o‘z ishlarida mamlakatda turistik transport infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganini, ayniqsa, mintaqaviy yo‘llar holatining sayyoohlarning harakatlanishida jiddiy to‘sinq bo‘layotganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ayrim tarixiy shaharlarga olib boruvchi yo‘llarning sifatsizligi turistlar oqimini kamaytirishga olib kelmoqda.

Iqtisodchi olma N.M. Ergasheva[2] turizmda logistika tizimining samarali ishlashi turistik xizmatlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri



ekanini qayd etgan. Uning tadqiqotlarida transport tarmoqlari o‘rtasidagi integratsiyaning sustligi, multimodal tashuv tizimining yo‘qligi O‘zbekistonda ichki turizmning sekin rivojlanishiga sabab bo‘layotgani isbotlab berilgan. Ayniqsa, u joylarda avtobus va temir yo‘l qatnovlari jadvalining noqulayligi, ularning zamonaviy texnologiyalar bilan moslashtirilmaganligi turistlar uchun muhim muammo bo‘lib qolayotganini ko‘rsatgan.

Taniqli turizmshunos olim Sh.Sh. Karimov[3] o‘z tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini yaxshilashda aeroportlar va vokzallarni zamonaviylashtirish masalasiga alohida urg‘u beradi. Uning fikricha, xalqaro aeroportlar sonining cheklanganligi va mavjudlarining xizmat sifati jihatidan global talablarga to‘liq javob bermasligi O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, u ichki aviaqatnovlarning yuqori narxlari va reyslar kamligi turistlar oqimini chegaralovchi omil sifatida tilga olgan.

Yosh tadqiqotchi D.A. To‘laganov[4] tomonidan olib borilgan tahlillarda esa turistik transport xizmatlarining hududlar kesimida nomutanosibligi ochib berilgan. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi markaziy shaharlarda nisbatan rivojlangan transport tarmog‘iga ega bo‘linsa-da, boshqa qator tarixiy va tabiiy maskanlarda bunday imkoniyatlar yetishmaydi. Bu esa turizmning barqaror va hududlararo muvozanatli rivojlanishiga to‘sinqlik qilmoqda.

Tadqiqotchi I.A. Sodiqov[5] esa O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning transport xizmatlariga integratsiyasi past darajada ekanini ta’kidlab, onlayn xarita, yo‘l navigatsiyasi, chiptalarni bron qilish tizimlari va boshqa zamonaviy xizmatlarning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi xorijiy sayyoohlar uchun noqulaylik tug‘dirayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu ilmiy izlanishlar umumlashtirilganda, O‘zbekistonda turizm transport tizimidagi muammolar ko‘p qirrali ekanligi, ular nafaqat infratuzilma yoki texnik



holat, balki boshqaruv, rejalarshirish, xizmat sifati va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyadagi kamchiliklar bilan bog'liqligi ayon bo'ladi. Bu esa kelgusida kompleks yondashuv asosida transport tizimini rivojlantirish, zamonaviy logistika modelini joriy etish va mavjud muammolarni ilmiy asosda hal qilish zarurligini ko'rsatadi.

Muxokama va Natija

O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyati jihatidan Markaziy Osiyodagi eng yirik va istiqbolli davlatlardan biri hisoblanadi. Biroq turizm sohasining izchil rivojlanishi mamlakatdagi transport tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan shu yo'nalishdagi mavjud muammolar turistik oqimning ko'payishiga sezilarli darajada to'sqinlik qilmoqda. Mamlakat hududining katta va geografik jihatdan murakkab ekanini inobatga olgan holda, turizm uchun qulay, zamonaviy, xavfsiz va integratsiyalashgan transport tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning ayrim yirik turistik shaharlari – Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva – nisbatan yaxshi transport infratuzilmasiga ega bo'lsa-da, bu imkoniyatlar boshqa turistik hududlarga nisbatan chegaralangan. Masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida joylashgan tarixiy va tabiiy obidalar bo'lishiga qaramay, u yerga olib boruvchi yo'llarning sifatsizligi, jamoat transporti tizimining yo'qligi yoki kam rivojlangani sayyoohlar harakatini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, ayrim chekka hududlarga borish uchun sayyoohlar ko'p vaqt va mablag' sarflashga majbur bo'lishadi, bu esa turizm xizmatlariga bo'lgan talabni pasaytiradi.

Transport xizmatlari sifati va ularning turistik ehtiyojlarga mosligi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Avtobus va temiryo'l qatnovlarining tartibsizligi,



ularning zamonaviy standartlarga javob bermasligi, transport vositalarining sanitariya va texnik holati pastligi, xizmat ko‘rsatish madaniyatining sustligi xorijiy turistlar orasida salbiy taassurot uyg‘otmoqda. Xususan, aeroport va vokzallarda logistika muvofiqlashtirilmagani, yetarli axborot xizmatlarining yo‘qligi, xalqaro standartlarga javob beruvchi xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining yetishmasligi tizim muammolarining bir qismini tashkil etadi.


Ichki aviatashuvlar sohasida ham qator muammolar mavjud. Aviachiptalar narxining yuqoriligi, reyslar sonining kamligi, alohida turistik mavsumlarda yuklamaning keskin oshib ketishi – bularning barchasi mamlakat ichida havo transportidan samarali foydalanishni cheklaydi. Shuningdek, mahalliy aeroportlarning ba’zilari zamonaviylashtirilmagan, bu esa ularning xizmat ko‘rsatish salohiyatini pasaytiradi. Temiryo‘l transportida esa yo‘lovchilar uchun qulay sharoitlarning yetishmasligi va onlayn xizmatlar imkoniyatlarining cheklanganligi mavjud muammolar sirasiga kiradi. Alohida e’tiborga molik jihat – bu raqamli texnologiyalar integratsiyasining pastligi. Raqamli navigatsiya xizmatlari, onlayn xaritalar, turistik transport ilovalari, avtomatlashtirilgan chipta sotish tizimlari va boshqa zamonaviy vositalarning yetarlicha rivojlanmaganligi xorijiy va ichki sayyohlar uchun noqulaylik tug‘diradi. Global tajriba shuni ko‘rsatadiki, transport-logistika tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmatlar sifati va foydalanuvchi tajribasi sezilarli darajada oshadi.



10 oyda 111 trln so‘mdan ziyod transport xizmatlari ko‘rsatilgan

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida respublikada transport xizmatlari hajmi 111 245,6 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’ati 108,5 % ni tashkil etdi.

Yillar kesimida ko‘rsatilgan transport xizmatlari hajmi,
(yanvar-oktabr):



1- rasim. O’zbekiston transport xizmatlari hajmi.³

Yuqoridagi holatlar asosida shuni aytish mumkinki, O’zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish uchun transport tizimidagi mavjud muammolarni hal etish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu borada davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va strategiyalar muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularning amaliy ijrosini ta’minlash, hududlar kesimida muvozanatlari rivojlanish, zamonaviy infratuzilmalarni barpo etish, xizmatlar sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Turizm va transport tarmoqlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olgan holda, kompleks yondashuv orqali bu sohadagi muammolarni bartaraf etish mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

³<https://stat.uz/uz/>



O‘zbekistonda turizm sohasining izchil rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan muhim omillardan biri sifatida transport tizimidagi mavjud muammolar e’tirof etilishi lozim. Mamlakatda mavjud transport infratuzilmasi ba’zi markaziy turistik shaharlar – Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva doirasida nisbatan qamrab olingan bo‘lsa-da, boshqa tarixiy va tabiiy turistik hududlarda jiddiy transport cheklvlari mavjud. Yo‘llarning sifatsizligi, jamoat transporti tizimining zaifligi, reyslar sonining kamligi, transport vositalarining texnik va sanitariya holatining past darajada bo‘lishi xorijiy va ichki turistlar uchun noqulayliklar tug‘dirmoqda.

Ichki aviatashuvlar sohasida yuqori chiptalar narxi, reyslar sonining cheklanganligi va aeroportlarning infratuzilmaviy holati mavjud kamchiliklardan hisoblanadi. Xususan, ichki havo qatnovlarining qulay va iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘imasligi turistik oqimni hududlararo taqsimlash imkonini cheklab qo‘ymoqda. Temiryo‘l transporti esa zamonaviy qulayliklarga to‘liq ega emas, onlayn xizmatlarning yetarli emasligi sayohatni rejalashtirishda qiyinchilik tug‘diradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar integratsiyasining sustligi, xususan, transport ilovalari, onlayn chiptalar, navigatsiya va ma’lumot xizmatlarining yetaricha rivojlanmagani ham mavjud tizimning zamon talablari darajasiga javob bermasligidan dalolat beradi. Bu esa transport tizimining turistlar ehtiyojiga moslashtirilmaganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi faktlar O‘zbekistonda transport tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etishini anglatadi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va chora-tadbirlar muhim bo‘lishiga qaramay, ularni amaliyotda to‘liq ro‘yogda chiqarish, hududlararo transport infratuzilmasini muvozanatlari rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va transport tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turizm sohasining yuksalishiga erishish mumkin. Shu ma’noda, turizm va transport tarmoqlarini uyg‘un holda rivojlantirish



O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda transport tizimining samaradorligi hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi. Mamlakatda mavjud turistik salohiyat yuqori bo‘lishiga qaramay, transport infratuzilmasining hududlar bo‘yicha nomutanosib rivojlanishi, jamoat transportining yetarlicha qulay bo‘lmasani, ichki avia va temiryo‘l qatnovlarining cheklanganligi, xizmat ko‘rsatish madaniyatining past darajada ekani turistik oqimning kengayishiga jiddiy to‘sinqlik qilmoqda.

Ayniqsa, transport tizimida raqamli texnologiyalarning sust integratsiyasi zamonaviy talablarga mos xizmat ko‘rsatishga to‘sinqlik qilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish, mamlakat bo‘ylab yagona va integratsiyalashgan transport-logistika tizimini shakllantirish, infratuzilmani zamonaviylashtirish, xizmatlar sifati va raqamli yechimlarni takomillashtirish orqali turizm sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Shu bois, transport va turizm tarmoqlari o‘rtasidagi uzviylikni inobatga olgan holda, davlat siyosatining kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmirzayev A.X. O‘zbekiston Respublikasida turizm transport infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2023. – №1. – B. 112–118.



2. Ergasheva N.M. Turizmda logistika tizimining raqobatbardoshlikni shakllantirishdagi o‘rni // "Ilm-fan va taraqqiyot" jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–52.
3. Karimov Sh.Sh. Aeroport va vokzallarni modernizatsiyalash – zamonaviy turizm infratuzilmasining asosi // "Turizm va madaniy meros" ilmiy-nazariy jurnali. – 2021. – №2. – B. 17–24.
4. To‘laganov D.A. O‘zbekistonda hududlar kesimida turistik transport xizmatlarining rivojlanish xususiyatlari // Yosh olimlar konferensiyasi materiallari. – Toshkent: TDIU, 2023. – B. 89–93.
5. Sodiqov I.A. Raqamli texnologiyalarning transport xizmatlariga integratsiyasi: mavjud holat va muammolar // "Axborot texnologiyalari va innovatsiyalar" jurnali. – 2022. – №3. – B. 101–106.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-apreldagi “Ichki turizmn ni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” to‘g‘risidagi qarori, №176.
8. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 128 b.
9. Turizm va madaniy meros vazirligining rasmiy hisobotlari va statistik ma’lumotlari. – www.mot.uz, 2022–2024 yillar.
10. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – www.stat.uz, 2024-yil.